



Mohira SATTOROVA,

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti dotsenti

E-mail: satorovamohira1022@gmail.com

QarDTU dotsenti, PhD D.Ismoilov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ORGANIZING INCLUSIVE EDUCATION IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Annotation

This article examines the pedagogical and psychological aspects of organizing inclusive education in general education schools. The necessity of implementing specialized pedagogical approaches, adapted curricula, and psychological support systems for the successful realization of inclusive education is emphasized. Key factors such as teachers' professional competence, students' individual needs, and the flexibility of the educational environment are also analyzed. The article presents advanced pedagogical practices and recommendations for the effective organization of inclusive education.

Key words: Inclusive education, pedagogical-psychological approach, adapted curriculum, special pedagogy, flexibility of the educational environment, teacher competence, individual approach.

НАУЧНЫЕ И ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах. Подчеркивается необходимость внедрения специальных педагогических подходов, адаптированных учебных программ и психологической поддержки для успешной реализации инклюзивного обучения. Также анализируются ключевые факторы, такие как профессиональная компетентность учителей, индивидуальные потребности учащихся и гибкость образовательной среды. В статье приводятся передовой педагогический опыт и рекомендации по эффективной организации инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, педагогико-психологический подход, адаптированная учебная программа, специальная педагогика, гибкость образовательной среды, компетентность учителя, индивидуальный подход.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ta'lim muassasalarida maxsus pedagogik yondashuvlar, moslashtirilgan o'quv dasturlari va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlari joriy etilishi lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, inklyuziv ta'limda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari va ta'lim muhitining moslashuvchanligi muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalar va tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, pedagogik-psixologik yondashuv, moslashtirilgan o'quv dasturi, maxsus pedagogika, ta'lim muhitining moslashuvchanligi, o'qituvchi kompetensiyasi, individual yondashuv.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim konsepsiyasi muhim o'rin tutib, ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, jumladan, nogironligi yoki maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarga teng sharoit yaratish tamoyiliga asoslanadi. Bunday ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik va psixologik yondashuvlarning o'zini katta bo'lib, ular ta'lim muhitining moslashuvchanligi, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlashni talab etadi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonuniy va metodologik asoslar ishlab chiqilgan. Biroq, amaliyotda inklyuziv ta'limni samarali yo'lga qo'yish turli pedagogik va psixologik muammolarni hal qilishni talab etadi. Jumladan, umumta'lim maktablarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonida differensial yondashuvdan foydalanish va pedagoglarning maxsus tayyorgarligini oshirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Shu bois ushbu maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinib, ta'lim muassasalarida samarali inklyuziv ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur mavzu bo'yicha ilg'or tajribalar, ilmiy asoslangan yondashuvlar hamda amaliy metodlar

tahlil qilinib, inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Maxsus pedagogika fanida imkoniyati cheklangan bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi.

Ular quyidagilardir:

eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
aqliy rivojlanishida nuqsonli bo'lgan bolalar;
nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
ruhiy rivojlanishi sust bolalar;
mujassam kompleks nuqsonli ko'r-kar-soqov bolalar;
rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
autizm sindromiga chalingan bolalar.

Imkoniyati cheklangan bolalar meyorda rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta'limda yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o'qitilishi maqsadga muvofiq. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlarga uni imkoniyati cheklangan bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u maktab tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u imkoniyati

cheklangan bolalar toifasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini imkoniyati cheklangan deb hisoblash mumkin emas.

Individual ta'lim rejasi: Har bir o'quvchining imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos keladigan ta'lim rejalari ishlab chiqiladi. Bu, bolaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga va uni muvaffaqiyatli ta'lim olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Reja individual o'qish tezligi, usullar, qo'shimcha materiallar va yordamchilarni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy yondashuv: Maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun darslarni kichik guruhlarda yoki individual tarzda olib borish mumkin. Bu metod o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini yaxshiroq namoyon etishlariga yordam beradi, chunki ular o'z qobiliyatlariga mos ravishda ta'lim oladilar. Nogironligi bo'lgan bolalar uchun ta'limda vizual va taktil vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu metodlar o'quvchilarga dars materiallarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, chunki ular ko'rish yoki tegish orqali bilib olishadi. Boshqa vositalar orqali tushuntirish: O'quvchilarga rasm, grafiklar, diagrammalar, jadvallar yordamida ma'lumotlarni tushuntirish. Bu o'quvchilar uchun yaxshiroq tasavvur yaratishga yordam beradi.

Taktil materiallar: Braille yozuvi, taktil kartalar va modellar, o'quvchilarga aniq tushunchalarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Taktil usullar, ayniqsa, ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun muhimdir. Aqliy va jismoniy cheklovlar bo'lgan o'quvchilar uchun ovoqli yordamchi vositalardan foydalanish samarali metodlardan biridir. Ovoqli metodlar o'quvchilarning ta'limda faolligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, ular uchun interaktiv va qiziqarli bo'ladi.

Ovoqli kitoblar va audio materiallar: Ko'rish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun matnlarni ovoqli formatda taqdim etish. Bu yordamchi vosita o'quvchilarga mustaqil ravishda o'qish va tinglash imkoniyatini yaratadi. Interaktiv dasturlar: Kompyuterlar yoki mobil ilovalar orqali o'quvchilarga turli audio-vizual materiallarni taqdim etish, ular o'rganayotgan mavzularni interaktiv tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Inklyuziv ta'limda o'quvchilarning emotsional holatini tushunish va ularga psixologik yordam ko'rsatish muhimdir. Imkoniyati cheklangan bolalar ko'pincha o'zlarini izolyatsiya qilingan yoki noqulay his qilishi mumkin, shuning uchun ularning emotsional va psixologik holatini kuzatib borish zarur.

Psixologik yordam: Psixologik maslahatlar va yordam, bolalar o'z-o'zini anglash, xavotirni yengish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'rganishlari uchun muhimdir. Psixologlar bilan ishlash bolalarga o'zining ijtimoiy va emotsional rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi.

Pozitiv ruhiy holatni yaratish: O'quvchilarga o'zlariga bo'lgan ishonchni rivojlantirish va muvaffaqiyatlariga e'tibor qaratish zarur. O'qituvchilar ijobiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini tan olish va ularni rag'batlantirishlari kerak. O'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun jamoaviy ishlash va guruh faoliyatlarini

tashkil etish kerak. Bu metod, o'quvchilarga bir-biri bilan muloqot qilish, yordam berish, o'zaro hurmatni o'rnatish va jamiyatda integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi.

Guruh ishlari: Maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni boshqalar bilan birga guruhlarda ishlashga rag'batlantirish. Bu, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rgatadi. Integratsion loyihalar: O'quvchilarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish va turli integratsion loyihalarda ishtirok etishini ta'minlash. Bu orqali o'quvchilar jamiyatda o'z o'rinlarini topadilar va boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilishni o'rganadilar. Pedagogik-psixologik metodlar faqat o'quvchilarni baholash tizimi orqali samarali bo'lishi mumkin. Baholash o'quvchilarning rivojlanish jarayonini doimiy ravishda kuzatishga yordam beradi va kerakli o'zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi. Formativ baholash: O'quvchilarning har bir bosqichdagi o'zgarishlari va rivojlanishini kuzatib borish va ta'lim jarayonida ular uchun kerakli tuzatishlarni kiritish. Bu, o'quvchilarga o'zlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Summativ baholash: O'quvchilarning umumiy yutuqlarini va erishgan natijalarini baholash, ularning umumiy rivojlanishini o'lchash. Bu jarayon o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini va qiyinchiliklarini aniqlashga yordam beradi. Inklyuziv ta'limda o'qituvchilarning pedagogik usullari o'zgaruvchan va moslashuvchan bo'lishi zarur. O'qituvchilar har doim yangi metodlarni sinab ko'rishlari, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirishlari va eng samarali ta'lim usullarini tanlashlari kerak. Yangi texnologiyalardan foydalanish: O'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni va interaktiv vositalarni o'z ishida qo'llashlari, ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishlari mumkin.

O'z-o'zini baholash va rivojlantirish: O'qituvchilar o'z pedagogik usullarini tahlil qilib, ular ustida ishlashlari, o'z malakalarini doimiy ravishda oshirishlari kerak. Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish uchun pedagogik-psixologik metodlar muhim ahamiyatga ega. Ularning samarali qo'llanilishi o'quvchilarning rivojlanishiga, jamiyatga integratsiyasiga va ta'limda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda pedagogik-psixologik metodlarni qo'llash orqali inklyuziv ta'limni yanada samarali tashkil etish mumkin.

Xulosa. Mamlakatimizda bolalarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarning oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda, bu sohada anchagina yutuqlarga ham erishildi. O'zbekistonda aholini davolash-profilaktikasi kengaygani hamda meditsina sohasidagi katta yutuqlar munosabati bilan imkoniyati cheklangan bolalar soni nisbatan kamaydi. Bolalarning chechak, o'lat, tif, vabo, traxoma, qizamiq va bolalarga xos boshqa yuqumli kasalliklar orqasida imkoniyati cheklangan bo'lib qolish hodisalari uchrab turadi. Irsiy omillar hamda intoksikatsiya va organizm shakllanayotgan paytda bosh miya, analizatorlarning zararlanishiga olib boradigan boshqa sabablar tufayli bolaning imkoniyati cheklangan bo'lib qolish hollari hali ham uchrab turadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning hayot sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2021.
2. Rasulova Z. X. Inkluziv ta'lim: pedagogik va psixologik jihatlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Mirzaeva G. M. Inkluziv ta'limning nazariy asoslari va pedagogik yondashuvlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
4. Пидкасистый П. И. Педагогика: инклюзивное образование. – Москва: Академия, 2017.
5. Воронкова В. В. Основы инклюзивного образования. – Санкт-Петербург: Питер, 2019.
6. Окклова С. Инклюзив таълимда педагогик инновациялар. – Тошкент: Илм-фан, 2021. Berdiyeva Gulobod Shonazarovna, Nargiz Irkinovna Djumayeva. "Гуманизация процесса профессионально-педагогической подготовки будущих учителей". Образование и воспитание 3 (2015): 1-2.
7. Исмоилова, Ю. Т. . Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки // Образование и воспитание. — 2015. — № 3 (3). — С. 9-11. — URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/9/141/> (дата обращения: 15.02.2023).
8. Yulduz I, M Umida. Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers- Бюллетень науки и практики, 2021ю Related articles All 2 versions. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q_DkC.

-
9. Ismoilova Yulduzkhon Turaevna . MORALITY AS A COMPONENT OF THE IMAGE OF THE MODERN TEACHER .European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 2, 2020 Part II ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page 141 www.idpublications.org.
 10. Ismoilova Y. T.. Important Aspects of Forming Critical Thinking in School-Age Children in Digital Education Conditions. Vol. 3 No. 2 (2024): International Journal of Formal Education.